



**MAMLAKATIMIZDA IQTISODIY, MOLIYAVIY,
INVESTITSIYA VA SOLIQ SALOHIYATINING O'ZARO
BOG'LIQLIGINI NAZARIY XUSUSIYATLARI.**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil tadqiqotchisi PhD

Jurayev Xusan Atamuratovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiy tizimning ajralmas qismlari hisoblangan iqtisodiy, moliyaviy, investitsiya va soliq salohiyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning nazariy jihatlarini tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida har bir salohiyat turining o'ziga xos xususiyatlari va ularning mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashdagi roli yoritilgan. Muallif tomonidan iqtisodiy salohiyatning birlamchi asos ekanligi hamda uning investitsion jozibadorlik va soliq bazasini shakllantirishdagi deterministik bog'liqligi asoslab berilgan. Maqola yakunida ushbu salohiyat turlarini kompleks baholash orqali fiskal va monitar siyosatning samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy xulosalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: soliq salohiyati, soliq tizimi, iqtisodiy mazmun, soliq bazasi, budjet daromadlari, soliq siyosati, fiskal samaradorlik, soliq yukini optimallashtirish, soliq tushumlari, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Kirish. Mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash va strategik rivojlanish maqsadlariga erishish uchun uning mavjud barcha ichki imkoniyatlarini tizimli tahlil qilish talab etiladi. Bugungi kunda iqtisodiy adabiyotlarda "salohiyat" tushunchasi turli shakllarda — iqtisodiy, moliyaviy, investitsiya va soliq salohiyati sifatida qo'llanilmoqda. Biroq, ko'pincha



ushbu tushunchalar bir-biridan ayro holda tadqiq etiladi. Aslida esa, ularning har biri yagona iqtisodiy tizimning uzviy qismlari bo'lib, biri ikkinchisini taqozo etadi.

Iqtisodiy, moliyaviy, investitsiya va soliq salohiyatlarining o'zaro bog'liqligi haqidagi nazariy qarashlar bir necha bosqichda, asosan G'arbiy Yevropa va AQSHda shakllangan.

1. XVIII-XIX asrlar: Klassik iqtisodiyot (Buyuk Britaniya). Salohiyat tushunchasining asosi bo'lgan "iqtisodiy resurslar" va ularning "soliq" bilan bog'liqligi dastlab Davlatning soliq olish imkoniyati mamlakatning ishlab chiqarish quvvati (iqtisodiy salohiyat) va jamg'arilgan kapital (investitsiya salohiyati) bilan cheklanishi nazariy jihatdan asoslangan.

Angliya davlatda. 1920-1930-yillar: Keynschilik inqilobi (Buyuk Britaniya va AQSH) Jon Meynard Keyns iqtisodiy, moliyaviy va investitsiya salohiyatlari o'rtasidagi zanjirni ilmiy asoslab berdi. Investitsiyalar (investitsiya salohiyati) orqali umumiy talabni oshirish, bu esa o'z navbatida milliy daromadni (iqtisodiy salohiyat) va davlat byudjeti tushumlarini (soliq salohiyati) ko'paytirishi isbotlandi. Buyuk Britaniya, keyinchalik AQSH (Ruzveltning "Yangi kursi" davrida). 1970-1980-yillar: "Taklif iqtisodiyoti" va Laffer nazariyasi (AQSH). Aynan shu davrda soliq salohiyati va investitsiya faolligi o'rtasidagi bog'liqlik eng yuqori nuqtaga chiqdi. Artur Laffer (AQSH) soliq stavkalarining investitsiya va iqtisodiy o'sishga ta'sirini ko'rsatib berdi. Bu nazariya soliq salohiyatidan haddan tashqari foydalanish iqtisodiy va investitsiya salohiyatini bo'g'ishini isbotladi.

AQSHda (Reyganomika davri). 1990-yillardan hozirgacha: Institutsional yondashuv (Yevropa va MDH) mBu davrda salohiyatlarning o'zaro bog'liqligiga "moliyaviy infratuzilma" va "huquqiy muhit" elementlari qo'shildi. R. Musgreiv (AQSH) va J. Stiglitz kabi olimlar soliq salohiyatini



mamlakatning moliyaviy tizimi barqarorligi bilan uzviy bog'liqlikda o'rgandilar. MDH davlatlarida (Rossiya va O'zbekiston): 1990-yillar oxiri va 2000-yillar boshida bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida hududlararo moliyaviy tengsizlikni kamaytirish maqsadida "soliq salohiyati" (tax capacity) tushunchasi ilmiy muomalaga keng kirdi.

Iqtisodiy salohiyatning mohiyati va uning soliq salohiyati bilan o'zaro bog'liqligi. Har qanday milliy iqtisodiyotda «salohiyat» tushunchasidan keng foydalaniladi. Salohiyatni tizimli ravishda aniqlab borish milliy iqtisodiy taraqqiyotning strategik yo'nalishlarini to'g'ri belgilashda muhim ahamiyatga ega. Mazmunan olib qaralganda, iqtisodiy salohiyat deganda mamlakat, hudud yoki korxonadagi mavjud resurslar, infratuzilma, inson kapitali va texnologiyalardan foydalangan holda erishilishi mumkin bo'lgan maksimal iqtisodiy natija imkoniyati tushuniladi.

Iqtisodiy salohiyatni tarkibiy jihatdan quyidagi turlarga guruhlash mumkin:

Tabiiy resurslar salohiyati;

Mehnat (inson kapitali) salohiyati;

Ishlab chiqarish (sanoat) salohiyati;

Moliyaviy salohiyat;

Innovatsion va texnologik salohiyat;

Transport-logistika va infratuzilma salohiyati;

Institutsional va demografik salohiyat.

Ushbu salohiyat turlarining aksariyati muayyan darajadagi soliq salohiyatining shakllanishiga, uning oshishiga yoki aksincha, kamayishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, iqtisodiy salohiyatni aniqlash



strategik rivojlanishni belgilashda ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, u iqtisodiyotning nazariy jihatdan eng yuqori darajada iqlay olish imkoniyatini ifodalaydi.

Iqtisodiy salohiyatning moliyaviy va soliq salohiyati bilan bog'liqligini tavsiflashda mavjud resurslarni asosli baholash, sanoat quvvatlari, texnologiya darajasi va investitsiya hajmlarini tahlil qilish taqozo etiladi. Shuningdek, tabiiy resurslar, mineral zaxiralar, qishloq xo'jaligi yerlari va suv resurslari kabi omillar iqtisodiy salohiyatning fundamental asosi bo'lib xizmat qiladi. Innovatsion indekslar va ishlab chiqarish zanjirini tahlil qilish hududning imkoniyat va xatarlarini (SWOT tahlil) aniqlashga hamda ularning soliq bazasiga ta'sirini o'lchashga imkon beradi. Iqtisodiy va soliq salohiyati o'rtasidagi bog'liqlikni empirik jihatdan baholashda zamonaviy statistik modellardan (Regression tahlil, Asosiy komponentlar usuli — PCA) foydalanish samarali hisoblanadi. Bunda infratuzilma indeksleri, transport, energetika, logistika va telekommunikatsiya tizimlarining holati alohida e'tiborga olinishi lozim. Albatta, soliq salohiyati mazmunan va tarkiban moliyaviy salohiyatning bir bo'lagi hisoblanadi. Moliyaviy salohiyat hajmi va darajasiga qarab soliq salohiyati ham shunga monand holda, moliyaviy resurslarning soliq bazasiga aylanishi bu yerda muhim sanaladi. Shu jihatdan olganda moliyaviy va soliq salohiyatining o'zaro bog'liqligini kengroq to'xtalib o'tish lozim deb hisoblaymiz. Avvalo, moliyaviy salohiyatning mazmuniga to'xtalib, ushbu kategoriyaga bildirilgan ilmiy ta'riflarni tahlil qilamiz.

O'z navbatida soliq salohiyati qanchalik yuqori bo'lsa – moliyaviy salohiyat shunchalik kuchli bo'ladi, sababi soliq salohiyati doiraviy almashinish tarzida qo'shimcha moliyaviy salohiyatni ham yuzaga keltiradi. Masalan, davlat byudjetidan ajratiladigan markazlashgan investitsiyalarning manbai soliq tushumlari hisoblanadi, o'z navbatida esa, bu markazlashgan



investitsiyalar real sektorning moliyaviy salohiyatini oshiradi, ya'ni u yerda qo'shimcha ishlab chiqarish ob'ektlarini ishga tushirishga imkon berganligi natijasida qo'shimcha moliyaviy resurslar shakllanadiki, bu ikki kategoriya bir birini to'ldirib boradi. Darhaqiqat, soliq salohiyati bu moliyaviy salohiyatning davlat tomonidan mobilizatsiya qilinadigan qismi hisoblanadiki, ularning o'zaro uzviyligi moliyaviy salohiyatning soliq salohiyatiga aylanishi bosqichma-bosqich amalga oshiriladi (ro'y berib boradi), bundan birinchidan, moliyaviy resurslar harakatlanishi natijasida soliq ob'ekti va bazasi bo'lgan iqtisodiy ob'ektlarni yuzaga keltiradi va oshiradi, ikkinchidan esa, bir yo'nalishdagi moliyaviy resursning ikkinchi bir moliyaviy resurslarni ko'payishiga ta'siri orqali ularning arifmetik tarzda ko'payishi orqali qo'shimcha soliq tushumlarini oshishiga olib keladi, uchinchidan, soliq salohiyatining kengayib borishi davlatning moliya-soliq siyosati orqali byudjetga qo'shimcha moliyaviy mablag'larni jalb qilish imkoniyatini oshirishi natijasida byudjet orqali jamiyatning iqtisodiy faoliyati jonlanadi, qo'shimcha moliyaviy resurslar paydo bo'ladi, bu degani soliqlarni jalb qilishda soliq yukini oshirmagan holda ko'proq soliq tushumlarini jalb qilish imkoniyatini beradi. Shunday ekan davlat doimo moliyaviy va soliq salohiyatini oshirib borishdan manfaatdor bo'ladi va ularning bir biriga aylanib turishini makroiqtisodiy modellarni to'g'ri qo'llashni taqozo etadi.

Soliq salohiyati investitsion salohiyat bilan ham o'zaro ta'sir aloqasiga ega bo'ladi, investsion salohiyatning soliq salohiyatiga ta'siri iqtisodiy rivojlanish zanjirida muhim o'rin tutadi, agar buni ilmiy nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, investitsion salohiyat soliq salohiyatiga bevosita ham, bilvosita ham ta'sir ko'rsatishini ko'rish mumkindir.

Mohiyati jihatidan investitsion salohiyat bu milliy iqtisodiyot, hudud yoki korxonaning investitsiyalarni jalb qilish va samarali o'zlashtirish imkoniyatlari yig'indisi bo'lib, u ishlab chiqarish infratuzilmasi, investitsiya



xavflarining darajasi, moliyaviy bozorlar rivoji, mehnat va inson kapitali, tabiiy resurslar va institutsional muhit va shu kabilar bilan belgilanadi.

Rossiya Federatsiyasida iqtisodiy, moliyaviy, investitsiya va soliq salohiyatlarining o'zaro bog'liqligini o'rganish va amaliyotga tatbiq etish asosan bozor iqtisodiyotiga o'tish davri (1990-yillar oxiri) va byudjet federalizmi tizimining shakllanishi bilan bog'liq. Rossiya tajribasining asosiy jihatlarini quyidagi yo'nalishlarda tahlil qilish mumkin:

1. Nazariy asoslarning shakllanishi. Rossiyada bu masala asosan "Hududiy iqtisodiy barqarorlik" nuqtai nazaridan o'rganilgan. 2000-yillarning boshlarida iqtisodchi olimlar (masalan, I. Gorskiy, V. Panskov, A. Dadashev) soliq salohiyatini shunchaki tushum emas, balki hududning iqtisodiy va investitsiyaviy imkoniyatlarining mahsuli sifatida talqin qila boshladilar. Rossiya fanida "Nalogoviy potensial" (soliq salohiyati) tushunchasi bevosita "Ekonomicheskiiy potensial" (iqtisodiy salohiyat) bilan uzviy bog'liqlikda ko'riladi.

2. Budjetlararo munosabatlar va tenglashtirish. Rossiya ulkan hududga ega bo'lgani uchun, federal hukumat hududlarning soliq salohiyatini aniqlashda kompleks yondashuvni qo'llaydi:

Soliq salohiyati indeksi: Har bir subyekt (viloyat, respublika) uchun uning iqtisodiy bazasi, resurslari va investitsiya jozibadorligidan kelib chiqib, qancha soliq yig'ishi mumkinligi hisoblanadi.

Moliyaviy yordam: Agar hududning iqtisodiy va moliyaviy salohiyati past bo'lsa, federal byudjetdan dotatsiyalar ajratiladi. Bu tizimda soliq salohiyati — "donor" va "subvetsiya oluvchi" hududlarni ajratishda asosiy mezon hisoblanadi.

3. Investitsion faollik va soliq imtiyozlari bog'liqligi



Rossiyada investitsiya salohiyatini oshirish orqali soliq bazasini kengaytirishning bir necha mexanizmlari yo'lga qo'yilgan:

Bu yerda investitsiya salohiyatini jalb qilish uchun soliq salohiyatidan vaqtincha voz kechiladi (imtiyozlar beriladi). Maqsad — uzoq muddatda iqtisodiy o'sish hisobiga kattaroq soliq bazasini yaratish. Hududiy rivojlanish loyihalari: Investitsiya kiritgan korxonalarga kelajakda to'lanadigan soliqlar hisobidan infratuzilma xarajatlarini qoplash tizimi mavjud.

4. Zamonaviy raqamli monitoring (FNS tajribasi). Rossiya Federal Soliq Xizmati (FNS) iqtisodiy va soliq salohiyatining o'zaro bog'liqligini Big Data (katta ma'lumotlar) orqali tahlil qiladi:

"ASK NDS" tizimi: Bu tizim iqtisodiyotdagi moliyaviy oqimlarni real vaqtda kuzatadi. Bu esa soliq salohiyatining qanchasi "yashirin iqtisodiyot"da qolayotganini ko'rish imkonini beradi.

Soliq monitoringi: Yirik investorlar uchun davlat bilan "ochiq muloqot" tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu investitsiya salohiyatini himoya qilish va soliq tushumlarini prognoz qilishda yordam beradi.

Rossiya bu masalada "Markazlashgan nazorat va hududiy rag'bat" modelini qo'llaydi. Ya'ni, soliq salohiyatini hisoblash usullari federal darajada qat'iy belgilangan, lekin hududlarga o'z investitsiya jozibadorligini oshirish orqali o'z iqtisodiy salohiyatini o'stirishga erkinlik berilgan.

Takliflar:

1. "Investitsiya-Soliq" multiplikatorini joriy etish. Yangi investitsiya loyihalariga berilgan soliq imtiyozlarining samaradorligini baholash tizimini yaratish. Imtiyoz faqatgina kelajakda soliq salohiyatini kamida 2-3 barobar oshiradigan tarmoqlarga berilishi lozim.



2. Hududiy soliq salohiyatini baholash metodikasini takomillashtirish. Hududlarning soliq salohiyatini hisoblashda faqat amaldagi tushumga emas, balki Germaniya tajribasidagi kabi "reprezentativ soliq tizimi" usuliga o'tish. Ya'ni, hududning YaHM, resurslari va demografiyasidan kelib chiqib, u qancha soliq yig'ishi kerakligi (nazariy salohiyati) hisoblanishi lozim.

3. Kichik va o'rta biznesning moliyaviy salohiyatini qo'llab-quvvatlash. Germaniyaning "Mittelstand" modeli kabi, o'z foydasini yangi texnologiyalarga qayta investitsiya qilayotgan korxonalar uchun daromad solig'i bo'yicha qo'shimcha chegirmalar (investment tax credit) tizimini kengaytirish.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1.Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest, and Money. – 1936.

2.Rayzberg B.A. Kurs ekonomiki. – M.: INFRA-M, 2017.

3.Jo'rayev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish. – T.: Sharq, 2004.

4. Panskov V.G. Nalogi i nalogovaya sistema RF. – M.: Finansi i statistika, 2018.

5. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси-Тошкент: Гафур Ғулом нашриёт уйи 2020.- 640 б.